9. Культурология. XX век: Энциклопедия. Т.I. – СПб.: Университетская книга; Алетейя, 1998. – С. 251.
10. Конен В. Третий пласт: новые массовые жанры в музыке XX века. – М.: Музыка, 1994. – С. 66.

REZYUME. Ushbu maqola jahon tarixshunosligi doirasida Qoraqalpog‘iston musiqa madaniyatining o‘rganilishi va yoritilishiga bag‘ishlanadi. Unda xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar asarlarida qoraqalpoq xalq musiqasi, og‘zaki-an’anaviy ijod namunalari, baxshichilik, dostonchilik, xalq qo‘shiqlari hamda milliy cholg‘ularning ilmiy talqini tahlil qilinadi. Shuningdek, jahon etnomuzikologiyasi kontekstida Qoraqalpog‘iston musiqa madaniyatining o‘rni, uning mintaqaviy va umuminsoniy madaniy jarayonlar bilan aloqadorligi yoritiladi.

РЕЗЮМЕ. Данная статья посвящена изучению и освещению музыкальной культуры Каракалпакстана в рамках мировой историографии. В нем анализируется научная интерпретация каракалпакской народной музыки, образцов устного традиционного творчества, бахши, дастанов, народных песен и национальных инструментов в работах зарубежных и отечественных исследователей. Также освещается роль музыкальной культуры Каракалпакстана в контексте мировой этномузыкологии, ее связь с региональными и общечеловеческими культурными процессами.

SUMMARY. This article is devoted to the study and coverage of the musical culture of Karakalpakstan within the framework of world historiography. It analyzes the scientific interpretation of Karakalpak folk music, examples of oral and traditional creativity, bakhshi art, epic poetry, folk songs, and national instruments in the works of foreign and domestic researchers. It also highlights the role of Karakalpak musical culture in the context of world ethnomusicology, its connection with regional and universal cultural processes.

JAHON MUMTOZ ASARLARI MILLIY TEATR SAHNASIDA

(O‘zbekiston xalq artisti Turg‘un Azizov V.Shekspirning
“Gamlet” asari rejissyorlik talqinida)

Xushvaqtov Eldor Bekmuradovich – *dotsent v.v.b*
O‘zDSMI, “Musiqali teatr san’ati” kafedrasi

Tayanch so‘zlar: Shekspir, Gamlet, kompozitsiya, tomosha, mumtoz, sahna, maktab, aktyor, rejissyor, ssenariy, dramaturg, shart-sharoit, butafor, pedagog, rassom, teatr, libos, ijod, tovush, chiroq, dekoratsiya, san’at, professional, tasavvur, spektakl, timsol, musiqa, raqs, plastika, maska, delarte, garmonik.

Ключевые слова: Шекспир, Гамлет, композиция, спектакль, классик, сцена, школа, актёр, режиссёр, сценарист, драматург, состояние, реквизит, педагог, художник, театр, костюм, создание, звук, лампа, украшение, искусство, профессионал, воображение, перформанс, эмблема, музыка, танец, пластика, маска, деларте, гармоника.

Key words: Shakespeare, Hamlet, composition, spectacle, classic, stage, school, actor, director, screenwriter, playwright, condition, props, educator, artist, theater, costume, creation, sound, lamp, decoration, art, professional, imagination, performance, emblem, music, dance, plastic, mask, delarte, harmonic.

Zamonaviy izlanishlar sahnaviy yangi til (yondashuv) va unga mos ifodaviylik sistemasini tashkil etish bilan uzviy bog‘liq. Zamonaviy spektaklda eng asosiy omil uning syujeti va kompozitsiyasidir. Rejissyorlar uchta o‘lchov birligi (raqs-o‘yin, ashula, musiqa) mavjud bo‘lgan sahnaga matnni qanday yangi yo‘l bilan ko‘chirishga intilishadi.

Qadimgi sinkret ko‘rinishidagi tomosha san’atiga qarab yuzaga kelgan teatr janrlari tushunchasi va o‘zida: jest, pantomima,

musiqa va raqs va nihoyat marionetka, qo‘g‘irchoqlaridagi alohida o‘rin olgan. Xatti-harakatlar va plastikalari bilan teatr ifodaviyligining noverbal ko‘rinishlari ham o‘zgaradi. Jahon teatr rivojlanish jarayonida qanday tendensiya yetakchilik qilayapti? Bu yerda har xil uslub va janrlarni ko‘rish mumkin. Xususan, pantomima teatri, so‘z teatri, raqs teatri, marionetka va maskalar teatri, sharq teatrlari va kabuki, delarte teatri vosita va usullarning qo‘llanilishlarini kuzatsa bo‘ladi. Yana bu yerda sharqiy fantaziyaga qurilgan erkin improvizatsiyali yorqin tomoshaviy ijro texnikasining delarte stilistikasi bilan uyg‘unligini ko‘rish mumkin. Rejissura garmonik bir butun va muayyan yaxlitlikka ega bo‘lgan tomosha, ko‘rinish, yaratish san’ati hisoblanadi. Rejissyor lotincha “rejisseur” so‘zidan olingan bo‘lib, “boshqaraman" degan ma’noni anglatadi. Rejissyor nafaqat boshqaruvchi, balki, tushuntirib, ko‘rsatib beruvchi, yozuvchi, chizuvchi, rassom, psixolog va hokazolar bo‘lishi lozim. U spektakl, film, televideniya, radioda ko‘rsatuv va eshittirishlarini, estrada va sirk dasturlarini sahnalashtiruvchi shaxs.

Rejissuraga san’at sifatida qarash Meyningen teatrining say harakatlari tufayli yuzaga keldi. Boshqa shu teatrning yetakchilari muallif matniga jiddiy e’tibor berib, tarixiy yoki zamonaviy muhitni aks ettirish, ommaviy sahnalarning uyg‘unligiga erishish Meyningenchilarning yutug‘i edi. Dastlab “rejissyor” atamasi ishlatilmas va bunga alohida ixtisoslik sifatida qaralmas edi. Yevropada uyg‘onish davrigacha, rejissura sahna ijodining mustaqil turi sifatida ajralib chiqquniga qadar, sahnalashtiruvchi vazifasini muallif, yetakchi aktyorlar yoki teatrning egasi bajargan. Uyg‘onish davrida Yevropada sayyor professional teatr bilan birga muallif, aktyor va rejissyor vazifasini o‘taydigan truppa rahbari ham yuzaga keldi. XVI-XVII asrlarda rejissuraning rivojiga V. Shekspir, J.B.Moler, Lope De Vegalar kabi yetuk klassik dramaturglar katta xissa qo‘shishgan. Faqat Burjuaziya davriga kelib, rejissura nazariyasi yaratila boshlandi. O‘zbek teatri va rejissurasi tarixida jadidlar boshlab bergan an’analarni professional o‘zbek milliy rejissurasi asoschilari M.Uyg‘ur, Y.Bobojonov, E.Masafayev, M.Ravshanov, N.Otaboyev, B.Yo‘ldoshev, A.Akobirov, K.Yo‘ldoshev, M.Muhammedov, R.Hamidov, U.Omon, V.Umarov va T.Azizovlar O‘zbek milliy teatri tarixida milliy asarlar bilan birga jahon dramaturgiyasi va rejissurasi an’analarini davom ettirib kelmoqdalar. O‘zbek milliy teatr tarixida M.Uygur birinchilardan bo‘lib V.Shekspirning “Gamlet” tragediyasini sahnalashtirgan edi.

“Gamlet” asari o‘zbek teatrlari tarixida o‘ziga xos va shakl jihatidan bir-birini takrorlamaydigan talqinda sahnalashtirilgan. O‘zbek Milliy Akademik drama teatrida O‘zbekiston xalq artisti T.Azizov original va professional talqinda o‘zbek milliy rejissurasi an’analarini saqlagan holda ushbu spektaklni sahnalashtirgan. Bugungi kunda komil insonni kamol toptirish manaviy hayotimizdagi eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ma’naviy-madaniy sohadagi tub sifat o‘zgarishlari tufayligina xar tomonlama yetuk, iymon-e’tiqodi butun, irodali, sobit qadam insonlarni tarbiyalash mumkin. Teatr san’atida ham nafaqat milliy, qolaversa g‘arbiy Yevropa va dramaturglari va rejissyorlarining ijodidagi uslub yo‘nalishlariga tayangan holda o‘zbek mentalitetiga mos sahna asarlari yaratilayotganligini ko‘rish mumkin.

XX asr boshi, professional Yevropa uslubidagi yangi o‘zbek teatri vujudga kela boshlagan davrlardanoq bejizga g‘arb dramaturgiyasiga murojaat qilinmagan. An’anaviy teatr ijro uslublariga ko‘nikma hosil qilgan boshqa millat hayoti va madaniyatini anglash va sahnada jonli ko‘rib kelgan o‘zbek tomoshabini uchun doim qiziqarli bo‘lgan. 30 yillarda o‘zbek teatr sahnasida ingliz dramaturgi V.Shekspir asarlari sahnalashtirilgan. Shundan so‘ng o‘zbek tomoshabini 1921 yilda ilk bor g‘arb mumtoz dramaturgiyasi namunalari bilan tanishishadi. Chunki, aynan shu yili g‘arb dramaturgi Shillerning "Qaroqchilar" asari o‘zbek sahnasida birinchi marotaba qo‘yiladi. Mumtoz spektakllar aktyorlarning imkoniyatini ochishga muhim maktab vazifasini o‘taganligini A.Hidoyatov, SH.Burhonov. O.Xo‘jayev, S.Eshonto‘rayeva, N.Rahimov kabi aktyorlarning klassik asarlarida yaratgan obrazlarida ko‘rishimiz mumkin.

Har bir ijodkor yashayotgan davri, vaqtidan kelib chiqib, takror va takror Shekspir asarlariga murojaat etadi va bu bilan Shekspirni anglashga, uning tilsimlarini ochishga intiladi.

Milliy teatrlarimiz sahnalarida yana g‘arb mumtoz dramaturgiyasiga murojaat qilindi.

1990 yillar oxirlarida, g‘arb mumtoz dramaturgiyasi namunalari o‘zbek teatri sahnasida ham ko‘rina boshladi. Sababi, teatr mumtoz sahna asarlari yordamida umrboqiy muammolar bo‘lgan insonparvarlik, vatanparvarlik va odob-axloq saboqlarini izlashga harakat qilarkan. 2003 yil O‘zbek Milliy Akademik drama teatrida “Gamlet” tragediyasiga to‘rtinchi bor murojaat etildi. Spektakl 1935, 1939, 1949 yillarda M.Uyg‘ur tomonidan sahnalashtirilgan bo‘lib, unda bosh rollarni S.Eshonto‘rayeva, A.Hidoyatov. O.Xo‘jayev, O.Jalilovlar ijro etganlar. Mana shu tragediyaga takror va takror murojaat etish asnosida rejissyor va aktyorlar asarning mazmuni va uni bugungi kun bilan nima bog‘lab turganini anglashga intilganlar. Har safar tomoshabin yangi talqindagi “Gamlet”ni ko‘rganda, o‘sha davr odamini, idealini ko‘rgandek bo‘laveradi. Shularning orasida A.Xidoyatov va O.Xo‘jayev ijrosidagi “Gamlet” obrazi tomoshabinlar qalbidan chuqur joy egallagan. Rejissyorning fikricha, “Gamlet” qasoskor emas, u otasining o‘limi sababini izlaydi. Sotqinlik va hiyonatni tagiga yetishga, uni quritishga intiladi. U hayotimizda sodir bo‘layotgan nohaqliklar, adolatsizliklarga qarshi kurashish uchun bel bog‘lagan insondir. Uning Ofeliya qabri ustida aytgan: -“Men uni qirq ming og‘asidan ham ortiqroq sevardim...” so‘zlarining ijrosiyoq rejissyor talqinidagi “Gamlet”ning qanday inson ekanligini namoyon bo‘ladi.

Yillar o‘tgan sayin teatr san’ati taraqqiy eta boshladi va o‘zbek sahnasiga yangicha talqindagi “Gamlet”lar kirib kela boshladi. 1939 yilda sahnalashtirilgan mazkur tragediyada bosh rolni O.Xo‘jayev ijro etadi. Uning talqinidagi Gamlet har bir ishni o‘ylab bajaradigan, atrofdagilar bilan o‘ylab muomala qiladigan ziyoli inson qiyofasida gavdalanadi. U atrofidagi unga yaqin bo‘lgan insonlarning qabihliklariga yuz tutganliklaridan azob chekadi va shunga qarshi kurashishga harakat qiladi. Aktyor mazkur rolida ilgarigi va hozir sodir bo‘layotgan kelishmovchiliklar va adolatsizliklarni ochiq ifodalashga harakat kiladi. “Gamlet” tragediyasi ko‘p marotaba va turlicha talqin etilgan. Shulardan bugungi kun teatr rejissyorlaridan T.Azizov talqinidagi yangi “Gamlet” spektaklda pyesa ruhi saqlangan holda, yetakchi g‘oyaviy mavzuga urg‘u berilganligi bilan va bosh qahramon o‘zgacha yaratilganligi bilan boshqa Gamletlardan ajralib turadi.

San’atshunos olim H.Ikromov T.Azizov rejissurasi haqida “Turg‘un Azizov talqinidagi bosh qaxramonda insoniy samimiyat kuchli, bilishga intilish va yomonlikka qarshi chora-tadbirlar ko‘rishdagi harakat-dramatizmi kuchli” deb ta’kidlaydi.

Spektakl davomida Gamletning “davr izidan chiqdi” so‘zi besh joyda qaytariladi. “Tohir Saidov ijrosidagi Gamlet har bir sahnani shu so‘zlar bilan yakunlaydi: sevgilisi Ofeliya unga yolg‘on gapirganda, maktabdoshlari uning ortidan kuzatib yurganda (ayg‘oqchilik qilganda), o‘gay otasi Qirol uni Angliyaga o‘limga yuborayotganda, buni bila turib ham, onasi Gertruda ham uni himoya qilmaganda, onasi zaharlanib o‘layotganda Gamlet takror-takror “davr izidan chiqdi, uni qaytadan izga solish, mening zimmamga tushdi” degan mashxur iborani aytib katta sinovlardan o‘tadi” - deya ta’rif keltiradi rejissyor. Rejissyor Gamletni bugungi kun qaxramoni sifatida ko‘rsatishga intiladi, uning fikricha, bugungi kunda insonlarga aqlli odam, ularni to‘g‘ri yo‘lga sola oladigan inson kerak deydi. Gamletni shunday ko‘rsatishga intiladi. Aktyor Toxir Saidov yaratgan Gamlet obrazi garchi ayrim juziy nuqsonlardan holi bo‘lmasa-da, o‘zbek milliy teatr san’atining so‘nggi davrdagi e’tiborli yutuqlaridan biri, desa bo‘ladi.

Gamlet roli Tohir Saidov uchun ajoyib izlanish manbayiga aylandi. San’atshunos olim Toshpo‘lat Tursunov yozadi: "Turg‘un Azizov “Gamlet”ga murojaat etar ekan, Shekspirni unutmaslik, sahna asari talqini sirlarini “Gamlet” misolida chuqur idrok etishga, aktyorlar, hususan yoshlarni safarbar etishni maqsad qilib oldi. Spektaklda Gamletning mashhur “davr izidan chiqdi” so‘zi besh joyda qaytariladi. Demak, besh hil ma’no kashf etishi kerak. Bundan mustasno,

shu besh hil qaytariq, “izidan chiqqan davr”ni izga solish mas’uliyatini o‘z zimmasiga olgan Gamlet xayoloti, iztirobi, biror qarorga kelish yo‘lidagi kechinmasi jarayonini ko‘rsatgichi sifatida o‘rtaga qo‘yiladi. Oxir oqibatda ijroda aktyor xatti-harakatiga aniqlik kiritdi... Gamlet roli topshirilgan Tohir Saidov aktyor sifatida imkoniyati katta kelajagi porloq ijrochi ekanligini isbotladi". Falsafa fanlari doktori, professor Vera Nikolayevna Sundukova “Gamlet” spektaklida Sayyora Yunusova talqinidagi Gertruda obraziga shunday ijobiy ta’rif berdi: “Katta Gamlet Qirol o‘limidan so‘ng, uning xotini qirolicha, kichik Gamletning onasi, butun qirollikda bir o‘zi qolgan. Endi, xokimiyatni bir o‘zi boshqara olmaganligi sabab, tezlik bilan qirollikni boshqara oladigan biror bir erkakga turmushga chiqishga majbur bo‘ladi. Bu o‘ringa esa uning qayni ukasi Klavdiy to‘g‘ri keladi. Chunki, Gamlet hali yosh va talaba edi”. Agar spektaklning sahna bezagiga ahamiyat beradigan bo‘lsak, unda rassom Bobur Ismoilov yaratgan dekoratsiya sahnada tarixiy haqiqatni ko‘rsatish bilan birga, ularni falsafiy va allegorik ma’no tashuvchi unsurlar bilan boyitganligini ko‘ramiz. Sahnada bir qarashda juda oddiy, ammo falsafiy, majoziy-ramziy tasvirlarni paydo bo‘lishi, ko‘p funksiyali liboslardan foydalanishi va spektaklning asosiy yukini ularga berish, sahna bezaklarida tabiiy ashyolarni ishlatish, yoritish vositalaridan unumli foydalanish ssenografik yutuqqa erishilgan. Sahnaning o‘rtasida malikaning to‘shagi joylashgan bo‘lib, barcha voqealar ana shu to‘shak atrofida bo‘ladi, qaxramonlar hattoki to‘shakni bosib o‘tadilar. Saroy muhitini berish uchun ulug‘vorlikka, tantanavorlikka e’tibor berilishi ham bejiz emas. Musiqa ham saroy hayotini ko‘rsatishga, ulardagi yuksak didni ifodalash uchun xizmat qiladi.

Rejissyor Turg‘un Azizov "Mening rejissyorlik ishlarim kitobida spektaklning ssenografiyasi haqida “Shekspirshunos olimlar rassom Bobur Ismoilov yaratgan bezaklarni mavzuga va spektaklning yechimiga juda mos tushgan, deb tan olishdi. Gollandiyalik mehmonlar esa, xozir Yevropa teatrlarida bunaqangi Shekspirona spektakllar yo‘q deyishdi” deya ta’rif keltiradi. Spektaklni tomosha qila turib, o‘tmish avlodlar tajribasiga suyangan holda, istiqbolni ko‘zlab, ijtimoiy tajriba va shaxsiy kuzatishlarni tahlil etib, tomoshabinlar o‘zlari uchun nima yaxshilik, nima yomonlik ekanligini belgilaydilar.

Turg‘un Azizov Gamlet obrazini qasoskor emas, faqat otasining o‘limi sabab qasos yo‘lini tanlagan, haqiqiy o‘zbek Gamletini olib chiqdi. U sotqinlik va xiyonatni tagiga yetishga, uni quritishga, ya’ni yo‘q qilishga intiladi. Gamlet jamiyatda sodir bo‘layotgan adolatsizliklar va nohaqliklarga qarshi kurashish uchun bel bog‘lagan zamon qahramoni timsoli sifatida sahnada jonlantirdi. Va bu bilan u o‘z oldiga qo‘ygan oliy maqsadiga erisha oldi. Bugungi kunda teatr sahnalarida g‘arb dramaturgiyasining o‘rin olishi, faol ijod qilayotgan teatrlarimiz oldiga nafaqat milliy dramaturgiyamiz, balki dunyo davlatlarining madaniyati, urf-odatlari va an’analarining namunali tomonlarini o‘zbek milliy madaniyati orqali go‘zal insoniy estetik tarbiyani shakllantirib, targ‘ib qilishdek vazifalarni o‘rtaga qo‘yadi. O‘zbek san’at oliygohlarida g‘arb teatr sanhalarida dramaturgiyasi va G‘arbiy Yevropa teatr rejissyorlarining ijodiy faoliyatini o‘rganish dolzarb masala ekanligini, bu esa talabalar rejissyorlik san’atiga qadam qo‘yayotgan ijodkorlar uchun teatr sahnalarida mumtoz g‘arb va o‘zbek milliy asarlarini talqin yetishda maktab vazifasini o‘taydi.

Foydanilgan adabiyotlar

1. Azizov T. Mening rejissyorlik ishlarim. -T.: San’at instituti bosmaxonasi, 2003.
2. Ismoilov T. Tarix va sahna. -T.: Adabiyot va san’at. 1998.
3. Stanislavskiy K.S. Aktyorning o‘z ustida ishlashi. T.Xo‘jayev tarjimasi.-T.: 1965.
4. Zaxarov M. Teatr bez vranY. -M.: 2007.
5. Tursunov T. XX asr o‘zbek teatr tarixi. -T.: 2010.
6. Xushvaqtov E. ZAMONAVIY SSENOGRAFIYA MAISHIY JANR IFODASI //Interpretation and researches. – 2024. – T. 2. – №. 21. – C. 93-97.

7. Xushvaqtov, Eldor. "ZAMONAVIY SSENOGRAFIYA MAISHIY JANR IFODASI." *Interpretation and researches* 2.21 (2024): 93-97.

REZYUME. Mazkur maqolada taniqli va buyuk rejissyor, pedagog, O‘zbekiston xalq artisti professor Turg‘un Azizov sahnalashtirgan “Gamlet” tragediyasi va uning sahnaviy talqini, Yevropa va O‘zbek teatri rejissurasi tendensiyalari, sahna asarining yaxlitligi va badiiyligi, Turg‘un Azizov izlanishlarining ijodiy o‘ziga xosligi asosiy e’tiborni qaratadi. Shuningdek, Milliy teatr sahnasida “Gamlet” asarini sahnalashtirishning zamonaviy va milliy uyg‘unlashuvi haqida so‘z boradi.

РЕЗЮМЕ. Статья посвящена трагедии “Гамлет” в постановке известного и великого режиссёра, педагога, народного артиста Узбекистана профессора Тургуна Азизова и ее сценической интерпретации, тенденциям европейской и узбекской театральной режиссуры, цельности и художественности пьесы, исследованием Тургуна Азизова. Оригинальност это главный акцент. Также говорят о современном и национальном сочетании постановки спектакля “Гамлет” на сцене Национального театра.

SUMMARY. This article deals with the tragedy “Hamlet” staged by the famous and great director, pedagogue, People's Artist of Uzbekistan Professor Turgun Azizov and its stage interpretation, trends in European and Uzbek theater directing, the integrity and art of the play, Turgun Azizov's research. The originality is the main focus. There is also talk of a modern and national combination of staging the play “Hamlet” on the stage of the National Theater.

АКТЁР ДӨРЕТИЎШИЛИГИНДЕ ИЛҲАМНЫҢ ОРНЫ

Ш.Р.Жаксиликов – *магистр*
Өзбекстан мәмлекетлик көркем өнер ҳәм мәденият институты

Таянч сўзлар: актёр, роль, ижодкор, саҳна, театр, мусиқа, адабиёт, рассом, рақс, иқтидор.
Ключевые слова: актер, роль, творец, сцена, театр, музыка, литература, художник, танец, талант.
Key words: actor, role, performer, stage, theater, music, literature, artist, dance, talent.

Актёрлық көркем өнериниң басқа көркем өнерлерден тийкарғы парқы сонда, басқа көркем өнер ўәкиллериниң илҳамлары келгенде ғана дөретиўшилик етиўи мүмкин. Бирақ, сахна актёры өз илҳамын ийелеген болыўы ҳәм аты спектакль афишасына жазылған күни оны жарата алыўы шәрт. Бунысыз ең жетилискен сыртқы техника да, айрықша дәрежедеги ишки уқыплылық да әззилик етеди. Ықтыярый дөретиўшиликте ықтыярсыз дөретиўшиликке жол таба алмағанлығы ушын актёрлар ишки, руўхый техниканы қабыл етпейтуғын қәўипли пикирге келеди. Олар сыртқы сахналық өнерде қатып қалып, қурғақ актёрлық кейпиятын ҳақыйқый илҳам деп қабыллайды.

Актёр пүткил денеси менен пьесаға берилип кетсе, буннан жақсы нәрсе жоқ. Бундай пайытта ол өз қәлеўинен тысқарыда, қәйтип атқарып атырғанын сезбеген ҳалда, не ислеп атырғанын ойламаған жағдайда рольдиң өмири менен жасай баслайды ҳәм ҳәммеси өз-өзинен ықтыярсыз рәўиште шыға береди. Бирақ, өкинишлиси, бундай дөретиўшилик барлық ўақытта да бизиң еркимизде бола бермейди. Гейде биз басы туйық көшеге кирип қалғанға уқсаймыз, бирақ, ҳәр сапары илҳамланып атқарыўымыз керек, лекин буны ықтыярсыз түрде орынлаўымыз лазым екен, биз болса буған уқыплы емеспиз, буның илажы бар ма? Бахтымызға буның илажы бар. Бул жол сананың ықтыярсызлыққа тиккелей емес, туўры тәсир көрсетиўинде. Актёрдың жоқары шеберлиги, оның бай, тәсиршең қәбилети, нервларының турақласқанлығы, терең сезим-туйғылары өмирди толық қабыллаўды билиўинде. [1] Егер актёр өзин сахнадағы орталық шараятында